

ZAXIRA KADRLARNI TAYYORLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR MAZMUNI

Sirojiddinov Maqsudbek

Yoshlar ishlari agentligi Sirdaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq allomalarining tarbiya haqidagi qarashlari, O'zbekiston OTMda axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish, va ilmiy va amaliy yondashuvlar asosida yoshlarda rivojlantiriladigan ma'naviy-axloqiy sifatlarning mazmuni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: axborot, axborot texnologiyalari, axborot madaniyati ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy sifatlar, axborot savodxonligi, kasb madaniyati.

СОДЕРЖАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ РЕЗЕРВНЫХ КАДРОВ

Сирожиддинов Максудбек

Начальник Сырдарьинского областного управления Агентства по делам молодежи Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье раскрывается содержание взглядов Восточных учёных и ученых в современности о духовно-нравственных качествах, которые развиваются у студентов на основе развития информационных технологий на образование и научно-практических подходов в Узбекистане

Ключевые слова: информация, информационные технологии, информационная культура, духовность, духовно-нравственные качества, информационная грамотность, профессиональная культура.

CONTENT OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TRAINING RESERVE PERSONNEL

Sirojiddinov Maqsudbek

Head of the Youth Affairs Agency of Syrdarya region

Annotation. This article reveals the content of the spiritual and moral qualities that are developed in students on the basis of the development of information technology in Uzbekistan, the views of oriental scholars on education and scientific and practical approaches.

Keywords: information technology, spirituality, spiritual and moral qualities, information, information culture, information literacy, professional culture.

Kirish. Jahonda iqtisodiy sub'ekt sifatida oliy ta'lim muassasasi talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlashda iqtisodiyot sektorining aksariyat qismi globallashuv jarayonlarining ta'siri natijasida sust rivojlanmoqda. Aynan ushbu jarayonlarni moliyaviy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va bitiruvchilarni to'la bandligini ta'minlash orqali iqtisodiy faolligini oshirish jahon va ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, davlatimizning mutaxassislarining raqobatbardoshligi dunyo miqyosida o'sishi jahon bozorida talabi darajasida shakllanishining malum darajaga o'sishi, O'zbekiston iqtisodiyotini o'sishiga jalb etilgan xorijiy mutaxassislari ko'ra bir necha bor yuqori samara beradi. Jahon banki dunyoning 174 ta rivojlanayotgan davlatlarida UNDP (United Nations Development Programme) dasturi orqali ushbu vazifalarni hal etish uchun har yili 5-6 mlrd.dollar investitsiya yo'naltirmoqda. SHuning uchun ham bugungi kunda jahon banki iqtisodiy siyosatida eng ustuvor vazifalardan biri bo'lib, iqtisodiyotda to'la inklyuziv bandlikni ta'minlash hamda ularning iqtisodiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan imtiyozli kreditlar ajratish hisoblanadi.

Jahonda fundamental institutsional islohotlar doirasida bozor tipidagi xo'jalik sub'ektlarini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy tizim transformatsiyalashuvi natijasida unga mos xo'jalik mexanizmlarida chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Shu munosabat bilan jahonda va rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi iqtisodiy sharoitda oliy ta'lim muassasasi talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlash asosida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning metodik asoslari mazmunini yanada takomillashtirish, bo'lajak mutaxassislarning iqtisodiy faolligini oshirish orqali, mamlakatning iqtisodiy salohiyati, uning

o'sish sur'atlari va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalariga ta'sirini oshirishga bag'ishlangan maqsadli ilmiy izlanishlar yanada jadallashmoqda.

Bugungi kunda har qanday mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash nafaqat tabiiy resurslarning mavjudligiga, balki, birinchi navbatda, zamonaviy, texnologiyalarni o'zlashtirishga qodir yuksak bilimli va malakali mutaxassislarni muntazam tayyorlab borishni talab etadi.

Globalashuv davrida dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlar, barcha sohalarda barqaror taraqqiyotni ta'minlashni talab etmoqda. SHU yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirish borasida mamlakatimizda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur dolzarb muammo echimiga qaratilgan vazifalar respublika oliy ta'lim muassasalarining ko'plab bitiruvchilarini ishga joylashtirish va bandligini ta'minlash muammolari bilan ham bog'liqdir. Hozirda oliy ta'lim muassasalari iqtisod yo'nalishi bitiruvchilarining mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashishida ham muammolar kuzatilmoqda. Ayrim hollarda bo'sh ish joylari mavjud bo'lgani holda ishchi kuchining ish beruvchi tomonidan qo'yilayotgan talablariga mos kelmasligi sababli bitiruvchilar bandligining ta'minlanmasligi holatlari yuzaga kelmoqda.

Buning natijasida ishsiz qolayotgan yoshlarning salmog'ini ortishiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ayni vaqtda iqtisod sohasida malakali ishchi kuchining etishmaslik holatlari kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SHavkat Mirziyoev 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida aholi bandligini ta'minlash masalasiga alohida ahamiyat berishimiz zarur ekanligini ta'kidlab o'tdilar. Jumladan, OTM talabalarini ish bilan bandlikka tayyorlash asosida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish, iqtisodiyot yo'nalishi talabalarini sifatli bilim olishi va o'z navbatida mehnat bozorida o'z o'rniga ega bo'lgan etuk va yuqori malakali kadr sifatida tayyorlash borasida hali o'z echimini topmagan muammolar talaygina. Jumladan, bandlikka ko'maklashish va ishga joylashishga ko'maklashish bo'yicha olib borilayotgan ish faoliyati OTM o'quv jarayoni bilan klasterli yondashuvning optimal shakl va usullaridan foydalanish, oliy ta'lim bitiruvchilarining bandligini ta'minlash tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish, bitiruvchilar bandligini ta'minlashda zamonaviy usullardan foydalanishni yo'lga qo'yish, ta'lim bilan ishlab chiqarish integratsiyasini to'liq ta'minlash, ilg'or xorij tajribalarini o'rganib borish va amaliyotga joriy etishni ta'minlash, ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishni taqozo etmoqda. [1, 2].

Kadrlar siyosatidagi mavjud bunday xolat kadrlar zaxirasini shakllantirish va zaxira bilan ishlash masalasiga ilmiy nazariy jixatdan yondashish butun dunyo mamlakatlari katorida bizning mamlakatimizda xam juda dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Chunki kadrlar zaxirasini shakllantirish, ular bilan tizimli ishlash, zaxiradagi kadrlardan to'g'ri va uz urnida foydalanish, raxbar kadrlarni lavozimda usib borish mexanizmi va texnologiyasini to'g'ri qo'llashga o'rganish orkaligina kadrlar siyosatini samarali tashkil etish va pirovard natijada jamiyatimizning umumiy rivojiga erishish mumkin bo'ladi.

Dunyo bo'yicha yuksak ma'naviyatli, ijtimoiy faol mutaxassislarni tayyorlashning kreativ-modulli texnologiyalari amaliyotga joriy etish asosida zaxira kadrlarni tayyorlash jarayoni amalga oshirilmokda. Ta'lim muammolari bo'yicha Butunjahon Forumi qabul qilgan 2030 yilgacha mo'ljallangan konsepsiyasidagi "...barcha uchun butun hayoti davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish..." vazifasi doirasida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda yangi ta'lim texnologiyalari, innovatsiyalar va zamonaviy tashkiliy tuzilmalarning birligini ta'minlash bo'yicha loyihalarni tatbiq etishga yo'naltirilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 26 mart, PQ-5040-sonli karorida ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan—milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish, qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish muhim ekanligini ta'kidlaganlar [2,17].

Davlat fukarolik xizmati tizimida kadrlar bilan ta'minlash masalasi mamlakatimizda hozirgi kunda juda dolzarb muammoga aylanganligini xayotning uzi ko'rsatib turibdi. Ayrim soxalarda lavozimga

tayinlangan xabarlarining ishni talab darajasida olib keta olmayotganligi, tashkilot faoliyatini strategik maqsadlar asosida tashkil kila olmayotganligi, kolaversa, jamoada o'z atrofiga kompetent kadrlarni jamlab ola bilmayotganligi kabi qator kamchiliklar sababli rahbarni yana almashtirish zarurati kelib chikayotganligi xolatlarining negizi kadrlar zaxirasini tayyorlash va shakllantirish masalasiga borib takaladi. Chunki xech kachon biron bir soxa buyicha mutaxassis, u kanchalik kuchli mutaxassis bo'lmasin, o'z-o'zidan xabar bo'lib shakllanmaydi. Buni uzoq yillik jahon tajribasi isbotlab bergan va dunyoning rivojlangan va rivojlanib borayotgan barcha mamlakatlarida kadrlar, eng avvalo, rahbar kadrlar zaxirasi bilan ishlash masalasi ga aloxida e'tibor karatilib kelinmokda, bu masala buyicha ilmiy asoslangan tizimlar yaratilgan, amaliyotga tatbik etilgan va bu tizimlar xayotda sodir buladigan uzgarishlar va tendensiyalarni oldindan prognoz kilish yunalishida takomillashtirib borilmokda. [4,17].

“Ma’naviyat” (arabcha “ma’nolar majmui”) tushunchasi “insonning ruhiy va aqliy olamini ifodalaydi”, u “axloqiy holat va axloqiy xususiyatlar”, “ijtimoiy hodisa” va “insonning ichki olamiga taalluqli bo’lgan yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari hamda his-tuyg’ularidir”. Bu yondashuvlarning barchasi ma’naviyatning pedagogik xususiyatlarini belgilab olish imkonini beradi. Unga ko’ra, ma’naviyat shaxs uchun axloq va tarbiya omili, uning ruhiy va aqliy olamini shakllantiradi, ijtimoiy hodisa sifatida axloqini tarkib toptiradi hamda hayotga yo’naltiradi. Chunki, davlatimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati ko’p jihatdan zamonaviy kadrlarning madaniyati darajasiga bog’liqdir. SHunday ekan oliy ta’lim muassasalarining yoshlarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni takomillashtirish, ta’lim mazmunini yanada chuqurlashtirishda qudratli kuch sifatida katta ta’sir ko’rsatadi.

Ma’naviy-axloqiy sifatlari yoshlar kasbiy faoliyatida muhim jarayonlarni ifodalaydi. Bu borada SHarq allomalarning qarashlari hozirgi kungacha o’z mavqeini yo’qotmagan. Jumladan, Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy inson faqat ma’naviyati tufayli boshqa jonzotlardan ajralib turishi va ma’naviyat faqat insongaga xosligini asoslab ko’rsatgan.[3; 83-85b]

Mutafakkir olim YUsof Xos Hojib (1019-1088) “Qutadg’u bilig” asarida ma’naviyat tushunchasini o’zbekcha “bilig” tushunchasi bilan ifodalaydi. Bu bilim va odob majmuasidir degan fikr bildirgan.

Ma’rifatparvar pedagog Abdulla Avloniy (1876-1930) “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida deydi: “Bani odamda axloq tug’ma bo’lmaydi, lekin uning asosi bo’lgan tuyg’u inson fitratida (tabiatida) tug’ma mavjud bo’ladi. Tarbiya vositasi ana shu tuyg’ular rivojlantiriladi shu tariqa axloq yuzaga keladi”- degan fikr yuritgan. Pedagog bolaning tug’ma va sof tuyg’ulari yaxshilikka yo’naltirilsa yaxshi fazilatlarini o’zlashtiradi; aksincha, tarbiya sust bo’lsa bolaning tuyg’ulari yomonlik xususiyatlarini yuqtiradi va uning xulq-atvori buziladi degan g’oyalarni ilgari suradi. [3; 94b].

Mutafakkir Ahmad YAssaviy (1103-1166) esa “Devoni hikmat” asarida deydi: “Bizga tarbiya yo’lini olib kelgan Muhammad (SAV) arablardan edi, uning tarbiya yo’li axloqlar majmuasidan iborat”. SHu ma’noda ma’naviyat axloqlar majmui sifatida namoyon bo’ladi.

Ma’naviy-axloqiy va targ’ibot-tashviqot ishlarining mezoni, avvalo, ularning el-yurt turmushiga o’tkazadigan hayotbaxsh ta’siri bilan belgilanadi. YOshlarning hayot so’qmoqlarida adashmasliklarini ta’minlash, ularni shiddatkor zamonning bo’ronu to’fonlaridan himoya qilish lozim. Ayniqsa, diniy aqidaparastlik, mafkuraviy kurashdagi loqaydlik tuzatib bo’lmas oqibatlariga olib kelishi mumkin.

“Axborot” atamasi “axbor” ma’lumotlar, ko’p xabarlar degan ma’noni anglatadi. Bunda turli ma’lumotlar qayta ishlanib, ayrim jihatlariga tuzatishlar kiritiladi. Axborotlarning ijtimoiy borliqda kechayotgan voqea hodisalar, alohida shaxs tomonidan bajarilayotgan ish, xatti-harakat, faoliyat to’g’risidagi ma’lumotlarni etkazish, xabar berishdan iboratdir. Axborotdan muhim manba sifatida foydalaniladi va unda ko’nikma va malakalar egallanadi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozimki yoshlarni har tomonlama ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu vazifalar milliy tarbiyaning asosiy tamoyillari, milliy madaniy va ma’naviy qadriyatlar, xalq va mamlakatimiz pedagogikasi yutuqlari, milliy vatanparvarlik, milliy qadr-qimmat va milliy iftixor tuyg’ularini tarbiyalash birinchi galdagi vazifa bo’lishi asosida amalga oshirilmog’i lozim.

Oliy talim muassasalarida yoshlarida axborot madaniyatini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslari ishlab chiqilgan. Unda jamiyat hayoti, shaxsning ijodiy imkoniyatlari, ahloqiy, aqliy, ijodiy kuch va qobiliyatlari, uning turmush tarzida, ijtimoiy – iqtisodiy sohalarini rivojlantirishdagi dolzarbligi nazariy jihatdan asoslangan. Ushbu maqolada yoshlarning nazariy dunyoqarashi, axborot muhiti, tashqi dunyodagi ob’ektiv omillarni tushunish, ishonitirish tamoyillari, shaxsni shakllantirish kabi nazariy

bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar jarayonida axborotlarni aniqlash va qayta ishlash operatsiyalarini bajarish kabilarga e'tibor berilgan. Adabiyotlarni o'rganish, tahlil etish va tajribalarga asoslangan holda uning ta'rifi ishlab chiqilgan. Bevosita jamiyat taraqqiyotida insonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni va ahamiyati ilmiy nazariy jihatdan asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлисга мурожаатномаси "Халқ сўзи" 2017 йил 27 декабрь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги қарори. 2021 йил 26 март, ПҚ-5040-сон

3. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2004. – 94 б.

4. Галанин О.А. Организация работы с резервом для назначения на должности руководящего состава органов внутренних дел Российской Федерации в свете требований административной реформы: автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. - М.: Академия управления МВД России, 2010. С.12.